



XX ASR TANQIDCHILIGI VA SHUKUR XOLMIRZAYEV IJODI

Dilovar Ibragimova

Termiz davlat universiteti

O'zbek filologiyasi fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotantsiya: Mazkur maqolada yozuvchi Shukur Xoolmirzayevning asarlari va tanqidchi olimlarning adib asarlariga munosabati o'rganiladi. Adabiy tanqidda yozuvchining badiiy mahorati haqidagi ilmiy tadqiqotlar umumlashtiriladi.

Kalit so'zlar: adabiy tanqid, ijod, yozuvchi, hikoya, Surxon, peyzaj, detal

XX asrning 60-yillaridan o'zbek adabiyotiga kirib kelgan va Istiqlol davri o'zbek nasrining taraqqiyotiga hissa qo'shgan yozuvchilar avlodi ichida Shukur Xolmirzaev alohida ajralib turadi. Uning ijodi hozirgi zamon o'zbek adabiyotining yorqin va mazmundor sahifalaridan birini tashkil etadi. Ko'p qirrali iste'dod sohibi Shukur Xolmirzaev adabiyotning turli janrlarida rang-barang hikoyalari, publitsistik maqolalari, tarixiy esselari, realistik qissalari-yu ajoyib romanlari bilan hozirgi zamon adabiyotida munosib o'rin egallaydi. Shuni ta'kidlash joizki, Shukur Xolmirzaev hikoya janrida salmoqli asarlar yaratib, ularda ijtimoiy hayot va davr manzaralarini, haqqoniy hayot va turmush tarzini, inson tabiatini va unga xos bo'lgan turli fazilatlar, ayniqsa inson ruhiyati, uning qalbida kechinmalar, ruhiy iztiroblaru tuyg'ularni butun murakkabligi bilan yoritdi.

Shukur Xolmirzayev ijod olamiga o'quvchilik paytlarida boshladi. Adabiyot o'qituvchisi H.Qulniyozovning bo'lajak yozuvchiga ta'siri katta bo'ldi. Uning rahbarligida yosh shoirlar to'garagida faol ishtirok etib, dastlab she'rlar yoza boshlaydi. 1953-yil 5-sinfda o'qiyotgan vaqtida yozgan "Shoir bo'laman" nomli birinchi she'ri ustozining "oq yo'l"i bilan tuman gazetasida chop etiladi. Oradan besh yil vaqt o'tib, 1958-yili shu gazetada "Xatarli so'qmoqda" nomli birinchi



hikoyasi bosilib chiqadi. Uning dastlabki qissasi – “To‘lqinlar” 1963-yilda “Sharq yulduzi” jurnalida e‘lon qilinadi. Qissani o‘qigan taniqli adib Abdulla Qahhor yosh qalamkashning nodir iste‘dodini birinchi bo‘lib payqagan, unga: “Ijodiy ishlaringiz baroridan kelsin”, - deb xat yozadi.

Shundan so‘ng mahoratli adib ijodi haqida o‘zbek adabiy tanqidchiligida turli munosabatlar bildirila boshladi. Asosan, o‘zbek adabiyotida hikoya janrining rivojiga hissa qo‘shgan yozuvchining mahorati tanqidchi olimlarimizning diqqat e‘tiborida bo‘ldi. Akademik Matyoqub Qo‘shjonov adibning “O‘n sakkizga kirmagan kim bor” kitobiga yozgan “Doim izlanishda” nomli so‘zboshisida uning yozuvchilik iste‘dodi o‘sha birinchi hikoyasidayoq namoyon bo‘lganligini alohida e‘tirof etdi. Olim shunday yozadi: “Bolalik, o‘smirlik paytlarida hayotdan olgan tajribasi asar yozish uchun kamlik qilar, hayot taasurotlari esa hali etarli hazm bo‘lmagan edi. Shu sababdan bu hikoya mavhumiyatlari, obrazini tasvirlashda, xususan, ularga individual bo‘yoq berishga noaniqliklar bor edi. Lekin yosh muallifning kelajagidan darak beradigan badiiy parchalar ham yo‘q emas edi unda. Agar o‘sha vaqtlarda yosh muallifning bu hikoyasini o‘qib ko‘rgan gazetaxonlardan birortasi “shu yigitdan yozuvchi chiqadi” deb bashorat qilgan bo‘lsa, xato qilmaydi”. [1:382]

XX asr adabiyotini juda chuqur tadqiq etgan taniqli olim, adabiyotshunos Naim Karimov boshchiligida tuzilgan “XX asr o‘zbek adabiyoti tarixi” darsligida yozuvchi ijodi yuksak baholanadi. “XX asr o‘zbek adabiyotini zamon o‘lchovida shartli ravishda uch tarixiy bosqichga ajratsak, Shukur Xolmirzayev uning so‘nggi bosqichida so‘z san‘atimizni yangi saviyaga ko‘tarishga salmoqli hissa qo‘shgan zabardast adiblarimizdan biridir. Shukur Xolmirzaev talabalik yillaridan iste‘dodini tirishqoqlik bilan parvarish etdi. O‘nlab hikoyalar, “Oq otli” (1961) va “To‘lqinlar” (1962) nomli bir emas, ikki qissa shu vaqtda yozildi. Tanqidchilik ularni xayrixohlik bilan kutib oldi”. [2:494]



Darhaqiqat, yozuvchi badiiy mahoratida ayni ijodining ilk davrlari 60-70-yillarda qator hikoyalarida tabiat tasvirlari, ayniqsa, o'zi tug'ilib, voyaga yetgan Surxon vohasi tabiati, insonlari, shuningdek, Boysunning beqiyos tabiat go'zalliklarini yozdi. Adib haqida Umarali Normatov "Ijod sehri" kitobida shunday yozadi: "...Shukur talabalikdan boshlab to umrining oxiriga- cha Toshkentda yashasa-da, shu yerda uylanib, uy-joyli, bola-chaqali bo'lsa-da, o'zi tug'ilib o'sgan Surxon farzandiligicha qoldi. Fe'l-atvori, gap ohanglari surxoncha; ... tug'ilib o'sgan ona yurtini nihoyatda yaxshi ko'rar, u bilan faxrlanar, nuqul o'sha tomonga talpinar, bugina emas, ustozlariga, qalamkash do'stlariga uni ko'rsatgisi, ko'z-ko'z qilgisi kelardi. M. Qo'shjonov, O. Sharafiddinov, Mirmuhsin, O. Yoqubov, P. Qodirov kabi ustozlar uning taklifi bilan bir necha bor bu yurtga tashrif buyurganlar." [3:321] Tanqidchi yozuvchi hikoyalarining mana shu xususiyatiga katta e'tibor qaratdi: "M.Sholoxov rus adabiyotida ona yurti – Don ruhi-koloritini kashf etgani kabi, Shukur Xolmirzaev XX asr milliy adabiyotimizga Surxon, aniqrog'i, Boysun ruhi-koloritini olib kirdi".

U hikoya janri talablariga javob beradigan, dolzarb mavzularda ajoyib hikoyalar yozdi. Munaqqid Qozoqboy Yo'ldoshev ta'kidlaganidek: "Adibning hikoyalari o'zbek novellistikasi taraqqiyotining o'ziga xos davrini tashkil etadi..."[4:349] Aytish mumkinki, uning hikoyalari badiiy mukammalligi bilan jahon adabiyotida yaratilgan sara hikoyalar bilan bimalol bellasha oladi. Adibning o'zi bu haqida shunday yozadi: "Men bu hikoyalarning har birini dunyo adabiyoti hikoyachiligiga bo'ylab yozganman..."

Shukur Xolmirzayev ijodi yuzasidan ko'plab maqolalar va tadqiqotlar, jumadan, H.Karimovning "Shukur Xolmirzayev ijodiy portreti" risolasi, akademik B.Nzarovning "Shukur Xolmirzayev" nomli ijodiy portreti yaratilgan. Shuningdek, taniqli munaqqidlar M.Qo'shjonov, U.Normatov, S.Mamajonov, Q.Yo'ldoshev, O.Otaxonov, R.Qo'chqorov, Y.Solixo'jayevlarning, adib asarlari to'g'risida ilmiy-



adabiy maqolalari e'lon qilingan. Albatta, adabiy tanqidning muhim janri bo'lgan adabiy-maqolalarda yozuvchi ijodining turli qirralari yoritiladi.

Xulosa qilib aytganda, adabiy tanqidchilikda yozuvchi Shukur Xolmirzayev ijodi jodi o'zbek tanqidchiligida izchil va bosqichma-bosqich rivojlanib o'rganilgan. Dastlabki tadqiqotlarda uning asarlari ko'proq ijtimoiy hayot tasviri nuqtayi nazaridan baholangan bo'lsa, keyingi davrlarda badiiy mahorati, psixologik tahlil uslubi, obraz yaratishdagi o'ziga xosligi chuqurroq tahlil qilina boshladi. Mustaqillik davri tanqidchiligida esa yozuvchi ijodi milliy qadriyatlar, insoniylik, erkin fikr va ma'naviy-axloqiy muammolar bilan bog'liq holda chuqur tadqiq etildi.

Adabiyotlar:

1. Qo'shjonov M. Saylanma. 2-jildlik. – Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982.
2. Karimov N. va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi.- Toshkent: O'qituvchi, 1999.
3. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: “Шарқ”, 2007.
4. Ёўлдошев Қ. Ёник сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006.
5. Sultonqulova F. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida ruhiy-psixologik holat ifodasida detalning o'rni. “Экономика и социум”. Россия.№6(121). – 2024.
<https://cyberleninka.ru/article/n/>